



Farg'onaazot
aksiyadorlik jamiyati

fargonaazot_uz

www.azot.uz

fargonaazot.uz

AO Farg'onaazot

info@azot.uz

t.me/fargona_azot

Gazeta 1979 yil yanvar oyidan chiqa boshlagan.

Kimyogar

Ijtimoiy-iqtisodiy gazeta

№ 9 (1709)
2022-yil, 28-sentabr.

YOSHLAR ITTIFOQI BOSHLANG'ICH TASHKILOTINING HISOBOT-SAYLOVI



Jamiatimiz Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotining hisobot-saylov yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda "Farg'onaazot" AJ boshqaruvi raisi Dilshod Mannonov, Yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi mas'ul xodimlari, korxonamiz yosh ishchi-xodimlari, Yoshlar ittifoqi sex yetakchilari, jamoat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdilar.

Hisobot-saylovning kun tartibidan "Farg'onaazot" aksiyadorlik jamiyati Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti Kengashi yetakchisining o'tgan davrdagi faoliyati yuzasidan hisoboti, kengash tarkibini saylash,

Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisini saylash, ittifoq Nizomiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Farg'ona shahar Kengashining navbatdagi konferensiyasida ishtirok etish uchun delegatlar saylash masalalari joy oldi.

Kun tartibiga kiritilgan masalalar delegatlar tomonidan qo'l ko'tarish yo'li bilan tasdiqlanib borildi. Yig'ilishda Kengashning joriy yildagi bajarilgan ishlar bo'yicha hisoboti tinglandi.

So'ngra Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi saylovi bo'lib o'tdi. Saylovda Nurmurod Sirojov bir ovozdan boshlang'ich tashkilot Kengashi raisi etib saylandi, shundan keyin tashkilotning bir yillik ish rejasi tasdiqlandi.

Ijtimoiy tarmoqlarda korxona yoshlari o'rtasida so'rovnoma

o'tkazilgan edi. Yig'ilishda so'rovnoma paytida ular bildirgan eng yaxshi takliflar shahar konferensiyasida ko'rib chiqish uchun taqdim etildi. Xususan, Yoshlar ittifoqi yetakchisi va a'zosi yoshini 35 yoshgacha uzaytirish haqidagi taklif berildi.

O'z o'rnida, korxona rahbari Nurmurod Sirojovga yosh ishchi-xodimlarda kasbga muhabbat uyg'otish va malakali mutaxassis bo'lishlari uchun ular o'rtasida ta'sirchan tadbir va suhbatlar o'tkazishni taklif etdi. Berilgan barcha

takliflar yig'ilish ishtirokchilari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Hisobot-saylov yig'ilishi so'ngida qayta saylangan boshlang'ich tashkilot yetakchisiga kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Ilhom Abduvohidov va jamoat tashkilotlari vakillari yangi muvaffaqiyatlar tilashdi. Korxona yoshlari bilan birgalikda bundan-da yuksak marralar zabt etilishi shubhasiz ekanligini aytishdi.

E'zozxon ABDULLAYEVA.

1 OKTABR — O'QITUVCHILAR VA MURABBIYLAR KUNI

*Sizgadir yurakda asragan so'zim,
To mangu ta'zimda turaman o'zim.
Dilimning tubida yangragan so'zim —
Ezgulik yo'lida tolmang, Ustozim!*

*G'am ko'rmay bu dunyo turguncha turing,
Ming yillik mehnatlar huzurin ko'ring,
Shogirdlar baxtidan shod, masrur yuring,
Ezgulik yo'lida tolmang, Ustozim!*

*Hayot yo'llarimda dildosh, deb bildim,
Yo'limni yoritgan quyosh, deb bildim,
Tole yo'llarida yo'ldosh, deb bildim,
Ezgulik yo'lida tolmang, Ustozim*

«CARBON-POLYMER» MAHSULOTLARI KO'RGAZMASIDA

Grafit va kaprolon ishlab chiqarish bo'yicha O'zbekiston bozorida yetakchi hisoblangan «Carbon-Polymer» ishlab chiqarish korxonasi o'z mahsulotlarini korxonamiz jamoasiga taqdim etdi.

2005 yilda tashkil topgan korxona sanoat, shu jumladan maishiy texnika uchun ehtiyot qismlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Ko'rgazmada turli xil vtulkalar, sterjenlar (tayoqchalar), tunuka listlar, sirpanchiq podshipniklar, izolyatorlar, fum tasmalari, turli diametrlil quvurlar, ftoroplast va boshqa polimerlarga asoslangan kompozit materiallar qo'yilgan bo'lib, korxona bosh mutaxassislari, sex va boshqarmalar muhandislari ularni qiziqish bilan ko'zdan kechirishdi.

— Mamlakatimizda

o'tkaziladigan kooperatsion yarmarkalar korxona ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun kerakli bo'lgan mahsulot turlari bilan tanishish imkonini beradi, - deydi ishlab chiqarishni nazorat qilish va loyihalarni amalga oshirish boshqarma boshlig'ining o'rinbosari Yorqinjon Xoliboyev. — Shuning uchun bizga kerakli mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalardan biri - «Carbon-Polymer» mahsuloti bilan tanishish maqsadida mazkur korxona mutaxassislari ishtirokida yarmarka tashkil etildi.

«Carbon-Polymer»da korxonamizda o'rnatilgan asbob-uskunaga mos salniklar, ftoroplast, roliklar, zichlovchi materiallar, futerlangan quvurlar, zaslonkalar, surma klapanlar (qopqoqlar) va boshqa detallar ishlab chiqarilgan ekan. Ko'rgazmaning qulay tarafi shundaki, korxonamiz sexlari mutaxassislari talab qilinayotgan detallarni ko'rib, ularning sifati bilan yaqindan tanishib chiqishmoqda. Endi tegishli talablari bilan ishlab chiqaruvchi korxona vakillariga murojaat qilishlari mumkin. Rahbariyatimiz topshirig'i



bilan biz kerakli mahsulotlar, texnik shartlar shakllantirilib, ishlab chiqiladi va tijorat takliflari beriladi. Bularning

barchasi mukammal ta'mir sifatining oshishiga ta'sir etadi - qo'shimcha qilib deydi Yorqinjon Xoliboyev.

G'OLIBLAR MUNOSIB TAQDIRLANDILAR

Korxonamiz xodimlari o'rtasida "Korrupsiyaga qarshi kurash" mavzusida insholar tanlovi hamda "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz" shiori ostida o'tkazilgan videoroliklar g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

“FARG'ONAAZOT” AJ



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq insholar tanlovi e'lon qilingan edi.

Tanlov korxona kompyutens nazorat xizmati va jamoat tashkilotlari tomonidan tashkil etilgan bo'lib, unda 20 nafarga yaqin korxona ishchi-xodimi faol ishtirok etdi. Insholar mualliflari korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish, uning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini to'g'risidagi o'z fikr-mulohazalarini bayon etganlar. Insholarni baholashda hakamlar hay'ati ularning mazmun-mohiyati, mualliflarning fikrlash darajasi va dunyoqarashiga e'tibor berdi.

Natijalarga ko'ra, ammiak-3 sexi mexanigi Sherzod Mirzayev tanlov g'olibi, deb e'lon qilindi. 2-o'rin XMD sexi apparatchisi Nozimaxon Abdurahmonova va ammiak-3 sexi laboranti Gulnoza Ismatilayeva, 3-o'ringa esa sanitar laboratoriya sexi laboranti Maftuna To'xtamato'va va markaziy kimyo laboratoriyasi laboranti Barno Tursunova

munosib ko'rildi. Tanlov ishtirokchilari - sanitar laboratoriya sexi laboranti Nodiraxon Aljonova va AK-72M sexi laboranti Muyassarxon Toshpo'latovaga Faxriy yorliqlar topshirildi.

Shuningdek, davlatimiz mustaqilligining 31 yilligiga bag'ishlab videoroliklar ko'rik-tanlovi ham o'tkazildi. Unda 17 nafar yosh ishchi-xodim ishtirok etdi. Bir-biridan ta'sirli, istiqbolimiz, Vatanga muhabbat tuy'g'usi, yurtimiz istiqbolini madh etilgan videoroliklar Yoshlar ittifoqi Kengashi tomonidan ko'rib chiqilib, g'olib va faxriy o'rinlar egalari aniqlandi.

Tanlovda 1-o'rinni XMD sexi ishchisi Shoxruh Mamatyusopovga, 2-o'rin malakalarni baholash sektori yetakchi mutaxassisi Javlonbek Nurmatovga va 3-o'rin aloqa sexi mehnat bo'yicha texniki Shohsanam Mamayorovaga nasib etdi. SN va SQBT(OTK) sexi laboranti Dilnoza Madazimova hamda sanitar laboratoriya sexi laboranti Zamira Abdullayevaga faxriy yorliqlar topshirildi.

Tanlov g'olibi va faxriy o'rinlarni egallagan ishtirokchilarga korxona ma'muriyati va kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan qimmatbaho sovg'alarga taqdirlandi.



Diniy-ma'rifiy tadbir

BIZ DINIY EKSTREMIZM, TERRORIZM VA FUNDAMETALIZMGA

QARSHIMIZ!

Korxona majlislar zalida tartib-maxfiy boshqarmasi tomonidan diniy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Unda Farg'ona shahar imom xatibi Jo'rabek Rahmonov, Farg'ona politexnika instituti dotsenti Ismatulla To'xtarov, Davlat xavfsizlik xizmati Farg'ona viloyat boshqarmasi xodimi, korxona bosh mutaxassislari, sex, bo'lim va boshqarmalar boshliqlari qatnashdilar.



Tadbirdi kirish so'zi bilan "Farg'onaazot" AJ boshqaruvi raisi Dilshod Mannonov ochdi. So'ngra Farg'ona shahar imom xatibi so'zga chiqib, nafaqat O'zbekistonga, balki butun dunyoga tahdid solayotgan diniy ekstremizm va terrorizm changalidan Vatanimizni, xalqimizni, ayniqsa yosh avlodni saqlash mavzusi naqadar dolzarb ekanligini ta'kidladi. Tinchligimiz, taraqqiyotimiz uchun o'ta xavfli bo'lgan bunday illatlarga qarshi murossasiz kurash olib borish barchamizning muqaddas burchimiz ekanligiga urg'u berdi. Yaqin Sharq va boshqa hududlardagi qator mamlakatlar chuqur siyosiy tanglik, ijtimoiy va iqtisodiy beqarorlik va qorolli to'qnashuvlarni boshidan kechirayotganligini, mazkur hududlarda go'yoki haqiqiy "islomiy davlat" qurish shiori ostida ochiqdan-

ochiq zo'ravonlik, insoniylikka zid vahshiyliklarga asoslangan amallarga qo'l urayotgan turli guruh va jamoalar urchib ketganini to'qinlanib so'zladi. Farg'ona politexnika instituti dotsenti o'z so'zida bugungi kunda dunyoning turli mintaq va hududlarida avj olayotgan qarama-qarshiliklar, qonli to'qnashuvlar, musulmon dunyosidagi turli mazhab va oqimlar o'rtasida kuchayib borayotgan nizo va ziddiyatlar, begunoh odamlarning qurbon bo'layotgani barchamizni tashvish va xavotirga solayotganini aytib o'tdi. Bu holatlar davlatning katta yoki kichikligi, dini va millatidan qat'iy nazar, tinchlik va barqarorlik naqadar aziz ne'mat ekanligini yana bir bor ko'rsatib turayotganligini aytib o'tdi. Diniy-ma'rifiy tadbirda, shuningdek, kadrlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i Farhod Sayfutdinov korxonamiz

ichki tartib-qoidalariga amal qilish, jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar, mehnat intizomi va ularga amal qilmaslikning oqibatlarini haqida, komplayens nazorat xizmati boshlig'i G'ofurjon Jabborov korruptsiya, talon-tarojlik, tanish-bilishchilikka chek qo'yish kabi dolzarb masalalarni ko'tarib, ularga qarshi barchamiz birga kurashishimiz joiz ekanligi xususida so'z yuritishdi. Korxonada sanoat xavfsizligini ta'minlash, baxtsiz hodisalarni oldini olish maqsadida mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi, atrof muhitni muhofaza qilish va xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarida sanoat xavfsizligi boshqarmasi boshlig'i Fayzullo Abdurrahmonov o'z nutqida kasb yo'riqnomalarini barcha xodimlar obdon bilishlari lozimligini qayd etib, unga amal qilgan holda mehnat qilishlari, sanoat

xavfsizligi qoidalariga rioya qilishlari joizligi haqida gapirdi. Bu, baxtsiz hodisalarni oldini olishga xizmat qilishini aytib o'tdi. Tartib-maxfiy boshqarmasi boshlig'i Muxtor Fuzaylov korxona toifalangan hudud ekanligi, uning himoyasi qattiq nazorat ostida bo'lganligi sababli ishchi-xodimlar jamiyat talablariga so'z-siz bo'ysunishlari lozimligi va turli xildagi ma'lumotlar saqlanishini aytib, odob-axloq, kiyinish odobi borasida ham to'xtalib o'tdi. Tadbirda bildirilgan fikr va mulohazalar inobatga olinib, ushbu masalalar bo'yicha korxona rahbari tomonidan tegishli bo'limlarga topshiriqlar berilishi ma'lum qilindi. Sex va boshqarma boshliqlariga ko'tarilgan mavzular ishchi-xodimlarga yetkazilishi yuzasidan ko'rsatmalar berildi. E'zozxon ABDULLAYEVA.

Kelajagimiz poydevorlari



IMKONIYATLAR —
KELAJAKKA YO'L

Hozirgi kunda respublikamizda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularga imkoniyatlar yaratish borasida beqiyos ishlar amalga oshirilmoqda. Tabiiyki, bunday yondashuv mamlakatimiz kelajagini belgilab, uning ravnaqi yo'lida xizmat qiladigan yetuk g'oyalarni o'zida mujassam qilgan.

Bejiz "Yoshlarga e'tibor — kelajakka e'tibor", deyilmaydi. Yoshlarning har tomonlama komil inson bo'lishlarida ta'lim tizimining mukammalligi katta rol o'ynashini hisobga olgan holda davlatimizda olib borilayotgan siyosat qay darajada dono ekanligini ko'rish mumkin. Yoshlarning oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishlari bilan birga malaka oshirish, qayta tayyorlash kurslarida o'qishlari ularning bilim va salohiyatlarini yanada oshirishga, yangicha, keng dunyoqarashga ega bo'lishlariga xizmat qilmoqda. Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan joriy etilgan O'zbekiston yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutining 4 oylik qayta tayyorlash kursida korxonamizning bir qator yoshlari ta'lim olib qaytgan. Ta'kidlash joizki, yosh kadrlarimizning mazkur o'qishga bo'lgan qiziqishlari, talablari ancha yuqori. O'z harakatlari, intilishlari bilan bu ta'lim maskanida o'qiyotgan yosh xodimlarimiz fikr-mulohazalarini tahririyatga taqdim etishga qaror qildilar. Ammiak-3 sexi operatori Qurvonali Sultonov ushbu institutga hujjat topshirib, bo'lib o'tgan imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tgan yoshlarimizdan biri. U bu intervyu orqali barcha korxona yoshlariga o'z kechinma va his-hayajonlari bilan o'rtoqlashishga qaror qildi. — Men davlatimizda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlardan foydalanish va yoshlar siyosatiga daxldor bo'lgan yosh sifatida Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash institutida ta'lim olishga intildim. Bu joyda o'qishdan maqsad yoshlarning hozirgi kundagi dolzarb

muammolari bilan tanishish, ularga yechim topishga yordam berish, yoshlar siyosatini chuqur anglash va, albatta, o'z bilim va ko'nikmalarimni yanada oshirishdan iborat edi. Joriy yilning 4-aprelida 4 oylik o'quv kursini tamomladim. Ta'kidlab aytamanki, o'qish davomida bir qancha qiziqarli fanlardan ta'lim oldim, bir qancha davlat idoralari ish faoliyati bilan yaqindan tanishdim. Institutda tashkil etilgan seminar-treninglar davomida muvaffaqiyatga erishgan biznesmenlardan saboq oldim. Professor o'qituvchilardan davlat boshqaruvi sirlarini o'rgandim. Davlatimizda yoshlar siyosatining davlat siyosati darajasida qabul qilinishing asl mohiyati bilan tanishdim. Bir so'z bilan aytganda, o'zimga kerakli bo'lgan barcha sohalar bo'yicha ma'lumotga ega bo'ldim. Shu bilan birga ajoyib do'stlar orttirdim. "Kuch — birlikda", deganlaridek, o'quv kursimiz davomida kursdoshlarim bilan haqiqiy bir jamoa bo'la oldik. Kursdoshlarimizning har biri kelajakda yurtimizning tayanchi bo'lib yetishishiga ishonchim komil. Menga akademiyada o'qishga sharoit yaratib bergan korxonamiz rahbariyatiga alohida tashakkur aytmoqchiman. Bizning korxonamizda yoshlarga berilayotgan e'tibor har bir tashkilot yoki korxonadan-da katta. Men o'quv kurs davomida olgan bilimlarim orqali jamiyatimiz ravnaqiga hissa qo'shishga, bor bilim va g'ayratimni safarbar qilishga harakat qilaman. Shuningdek, korxonamiz yoshlarini bizga yaratib berilayotgan imkoniyatlardan to'g'ri foydalanishga, yoshlar siyosatiga befarq bo'lmagan holda, uning bir qismi sifatida harakat qilishga chaqirib qolaman. Chunki kelajak — biz, yoshlarning qo'lida!

Millat illati

KORRUPSIYADAN
AVVALO O'ZINGIZ
QUTULING!

Agar fuqaro mayda bir muammo tufayli korruptsiyaga duch kelsa, hukumatdan norozi bo'ladi, o'zi yashab turgan jamiyatdan ixlosi qaytadi. Ammo, o'zi kurashmaydi. Nega? Chunki kezi kelganda o'zi ham qaysidir soha vakillarini siylaydi, hali hanuzgacha...

Ayol-u erkak - bari umri davomida hech bo'lmasa bir marta korruptsiyaga qo'l uradi. Bog'cha, maktab, ishxona, tug'ruqxona, bank, tender, bandlik idorasi va hokazo... ularning sanog'i ko'p... Juda xohlaganidan emas, ishi yurishi uchun o'z xohishi bilan pora taklif qiladi, yo'lini topib beradi... Gapning indallosi, kundalik hayotda har qanday soha yoki shaxs bilan ijtimoiy aloqaga kirishganimizda imkon boricha o'z foydamizni ko'zlab pora tutamiz. Demak, maishiy korruptsiyani yengish uchun o'zimiz halol yashashga tayyor bo'lishimiz kerak. Yana bir gap. Korruptsiya bor ekan, boshqa ijtimoiy muammolarning yechimini kutish befoyyda. Masalan, tadbirkorlar "otkat"ni bermasa, kam foizli kreditni olishi muammo... Yer olmoqchi bo'lgan fuqaro kadastrga "salom-aligini" qilib qo'ymasa, bu ham muammo. Barcha illatlar kabi korruptsiya ham unga qulay bo'lgan makonda tez urchiydi. Chunki, korruptsiya juda ko'p odamga qulay. Hatto shifoxonada xonalarni tozalaydigan farroshgacha korruptsiyaga aralashadi. Qanday qilib, deysizmi? Tug'ruqdan keyin tanasiga infektsiya tushishidan cho'chigan ayol xona tozaligini istagani uchun ham tozalik bekasining cho'ntagiga pul tashlab qo'yarkan. Nega farrosh "menga pulingizning keragi yo'q, bu mening vazifam-ku", deya olmaydi yoki ayol ham barcha kabi o'sha tozalikka ko'nmaydi. Demak, biz o'zimiz qonun-qoidalariga bo'ysunishni istamas ekanmiz, korruptsiyaga bo'ysunishga majburiy. Ammo tan olish kerak. Kun ora pora olgani yoki bergani uchun qo'lga tushib, jazolanayotganlar kam emas. Jamiyat ham, fuqarolar ham davlat siyosatini qo'llab-quvvatlashi zarur-da. Befarq fuqarolik pozitsiyasi va nomigagina tuzilgan jamoatchilik nazoratining kimga keragi bor?! Minglab afishalar chiqaraylik, hatto tongni «Pora bermang va pora olmag!» degan xitob bilan qarshi olib, yeng uchida ishni bajaraversak. Nufuzli zavodda ishga joylashgan qarindoshimizga, to'g'risi, hozir oddiygina ishga kirish uchun ham pora bergan, so'ragan odamni ko'rganda "Uddalabdi, omadini bersin", deb ketaversak bu illatni qanday yengamiz? Buning uchun, avvalo, ichimizdagi tamagiriklik illatini o'ldirish kerak. Ocho'zlik illatini daf qilish kerak. Xulosa shuki, korruptsiyani yo'q qilishni o'zingizdan boshlang!

Foziljon XATAMQULOV,
fuqarolik ishlari bo'yicha
Farg'ona viloyat sudining sudyasi.

Baxtli ayol — baxtli oila, baxtli jamiyat demakdir

XOTIN-QIZLARNING
FAOLLIGINI
OSHIRISH UCHUN

"Farg'onaazot" aksiyadorlik jamiyatida jami 6625 nafar ishchi-xodim faoliyat yuritib keladi. Ularning 2376 nafarini xotin-qizlar tashkil etadi. 30 yoshgacha bo'lgan ayollar soni 684 nafar bo'lib, rahbar lavozimlarda esa 19 nafar ayol ishlaydi.




Yuqorida ko'rsatilgan raqamlarga qaraganda, korxonamizda talaygina ayollar ishlab kelayotganini ko'rish mumkin. Ularning har biri korxonamizning ajralmas qismiga aylangan. Albatta, erkaklarga nisbatan xotin-qizlar bilan ishlash ancha murakkab. Shunga qaramay, korxonada xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash, milliy qadriyatlarini ulug'lash, jamoadagi ayollar huquqlarini har

tomonlama himoya qilish, gender tenglik masalalari bo'yicha huquqiy savodxonligini oshirish, ularni tazyiq, zo'ravonlikdan himoya qilish maqsadida doimiy ravishda targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari bundan mustasno emas. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati doimiy senatori Manzura Salimova bilan bo'lib o'tgan uchrashuv aynan shu masalalarni qamrab oldi. Uchrashuvda xalq

deputatlari Farg'ona viloyat Kengashi kotibiyati mudiri Sherzod Karimov ham ishtirok etdi. Manzura Alimova o'zining nutqida Prezidentimiz rahbarligida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar natijasida davlatimizda so'nggi yillarda xotin-qizlar masalalari bo'yicha, ya'ni, ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faolligini oshirish maqsadida me'yoriy-huquqiy baza xalqaro standartlar asosida takomillashtirilib, tashkiliy-institutsional baza

mustahkamlanishi, strategik va konseptual hujjatlar qabul qilinib, ularning ijrosi ta'minlab kelinayotganini qayd etdi. Shu o'rinda, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirib kelinayotganligini ma'lum qildi. Uchrashuv so'nggida ochiq muloqot o'tkazilib, ayollar savol va takliflari eshitib chiqildi. Tashkilotchilar tomonidan muammolar yozib olinib, ularga ijobiy yechim topilishi aytiladi.



Seminar

ASOSIY
E'TIBOR —
SANOAT VA YONG'IN
XAVFSIZLIGIGA

Bunda tinglovchilar e'tibori amaldagi sanoat va yong'in xavfsizligiga oid qonunlar va me'yoriy-texnik hujjatlar talablariga qat'iy rioya qilish muhimligiga qaratildi. Korxonamizning I va II ishlab chiqarish maydonlarida bo'lib o'tgan bu seminarlarda MM, XT, AMM va XICHO SX boshqarmasi yetakchi mutaxassisi Fazliddin Sotibaldiyev amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga amal qilinishi muammolarini o'rganish, tegishli vazifalar belgilanishi, korxonaning har bir ishchisi ish joyi yo'riqnomasi, barcha talablar, doimiy texnologik qoidalar, ish joyi bo'yicha ish normasi va qoidalariga amal qilish yuzasidan korxona ko'rsatmalariga rioya qilishi kerakligi to'g'risida so'z yuritdi. Seminarda "Farg'onaazot" AJ ob'ektlari binolarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Anvar Axunov so'zga chiqib,

yong'in xavfsizligi, korxonada birlamchi o't o'chirish vositalari va maxsus o't o'chirish tizimlari haqida gapirdi. Anvar Axunov o'quv seminarini tashkil etishdan maqsad — yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya etilishini ta'minlashdan iborat bo'lib, ushbu masalada

ishchi-xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish muhim masalalardan biri ekanligini qayd etdi. Seminarda yong'in xavfsizligi qoidalariga e'tiborsiz va beparvo bo'lish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noxush holatlar misollar yordamida tushuntirildi.

MM, XT, AMM va XICHO SX boshqarmasi mutaxassislari korxona hududida yong'in xavfsizligini ta'minlash, yong'in kelib chiqishi oldini olish va o't o'chirish ishlari tezkor tashkil etish va nazorat qilish to'g'risida ham gapirdi. Ishtirokchilar tomonidan berilgan savollarga javob berilib, bildirilgan fikr-mulohazalar e'tiborga olindi. Eslatma: Korxona va ishchi-xodimlar yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilish, yong'in xavfsizligi

tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, ularning bajarilishini doimiy monitoringini ta'minlash hamda yong'inning oldini olish bo'yicha targ'ibot ishlari olib borib, xodimlarni yong'in xavfsizligi choralarini ko'rish va o'rgatishga mas'ul va majburiy.

Fazliddin
SOTIBALDIYEV,
MM, XT, AMM va XICHO
SX boshqarmasi yetakchi
mutaxassisi.

РЕСЕРТИФИКАЦИОННЫЙ АУДИТ ПРОВЕДЁН УСПЕШНО

Деятельность АО “Farg’onaazot”, как крупного производителя минеральных удобрений и других видов химической продукции, основана на выполнении требований законодательства в области защиты прав потребителей, охраны окружающей среды и эффективного использования энергии.

Как известно, недавно на нашем предприятии был проведён ресертификационный аудит. С просьбой рассказать о результатах данной проверки редакция газеты «Кимёгар» обратилась к специалисту отдела стандартизации и системы менеджмента качества Отабеку Магдазиеву.

— Отабек Джахангирович, для начала скажите, пожалуйста, каково значение сертифицированной системы менеджмента качества для предприятия?

— Интегрированная система менеджмента охватывает практически все сферы деятельности предприятия, а наличие у нас сертифицированной системы менеджмента качества серьезно повышает авторитет нашего предприятия. В последние годы все большее значение приобретает грамотный менеджмент, в частности, сертифицированная система менеджмента, которая является одним из требований в мировой практике бизнес-партнерства.

— Расскажите о преимуществах интеграции систем менеджмента в одну систему?

— Интеграция систем менеджмента в одну систему дала возможность сократить общий объем документации и избежать дублирования многих документов и запи-



сей. При отдельных системах этого достичь было бы затруднительно, а во многих случаях - невозможно.

— Какие стандарты Интегрированной системы менеджмента качества приняты на нашем предприятии?

— На нашем предприятии приняты и действуют следующие стандарты: ISO 9001:2015 система менеджмента качества, ISO 14001:2015 система экологического менеджмента, ISO 50001:2018 си-

стема энергетического менеджмента.

— Какая организация осуществляет сертификацию и ресертификацию на нашем предприятии?

— Сертификацией и ресертификацией на нашем предприятии занимается CERT International. Это международная организация, которая имеет европейскую аккредитацию в Словацкой национальной службе по аккредитации SNAS. Данная

организация выдаёт сертификаты по всем ключевым стандартам ISO, которые признаются практически во всём мире, а это в свою очередь позволяет нам выходить со своей

веден ресертификационный аудит Интегрированной системы менеджмента.

— Скажите, а кто проводил международный аудит?

— Ресертификационный аудит проводился с участием международных аудиторов CERT International, руководителем команды по аудиту был И.И.Кудряков, международный аудитор, зарегистри-

несоответствия были оперативно устранены, и в этом международным аудиторам оказывал содействие персонал нашего предприятия. Во время аудита проверялись не только документы ИСМ, но и вся Интегрированная система в целом. Главной же целью было повышение её эффективности.

— А теперь расскажите об итогах аудита.



стрированный на регистре IRKA, а также аудиторы С.Б. Лукманов, А.Э.Аширматов, В.В. Береснев, Д.Х. Абдуллаева и стажер У.Э. Абдураимов.

— Как проходил международный аудит?

— Необходимо отметить, что ресертификационный аудит охватил все структурные подразделения предприятия, и мы к этому готовились, но всё же не обошлось без замечаний. Все не критические

Подведение итогов ресертификационного аудита проходило 13 сентября текущего года в актовом зале предприятия, с участием международных аудиторов, руководства АО “Farg’onaazot”, главных специалистов, а также начальников цехов. По итогам ресертификационного аудита на заключительном совещании было принято решение о выдаче нашему предприятию сертификатов по Интегрированной системе менеджмента всех трех стандартов.

Беседу провёл О. БЕГИДЖАНОВ.

ПРЕИМУЩЕСТВА ИЗДЕЛИЙ «CARBON - POLYMER»

по достоинству оценены на состоявшейся в АО «Farg’onaazot» выставке

В АО «Farg’onaazot» особое внимание уделяется оптимизации импорта за счет приобретения на внутреннем рынке отечественной продукции, отвечающей всем стандартам и техническим требованиям и не уступающей по своим техническим характеристикам и качеству аналогичной продукции импортного производства.



8 сентября 2022 года в АО «Farg’onaazot» состоялась выставка изделий, производимых ООО «CARBON - POLYMER».

Располагающееся в городе Алмалык Ташкентской области это предприятие выпускает такие виды востребованной продукции, как графитовые и металл-графитовые электроды для промышленности и бытовой техники. Представленный на выставке ассортимент ЭГ шеток поражае своим выбором - их было более тысячи марок, типов и размеров! Кроме того, предприятие производит графитовые электроды, графитовые подшипники, втулки, уплотнители, тигли, жаропрочные блоки, а также занимается изготовлением сложных изделий из графита.

Как заявил представитель ООО «CARBON - POLYMER», на

предприятии есть возможность производства продукции по чертежам заказчика. Необходимо также отметить, что продукция предприятия вошла в программу локализации. Продукция, состоящая из графита, текстолита и стеклотекстолита, металла, а также таких композиционных материалов, как фторопласт и капралон является уникальной для стран Центральной Азии. Территориальная близость такого производителя исключает большие транспортные расходы, связанные с логистикой. Ещё одним преимуществом приобретения запасных частей и материалов у местного производителя является экономия валютных средств. Кроме того, имеется возможность заказа продукции с заданными техническими параметрами и конфигурацией, что является не-



дукции, получить у них те или иные предложения и пожелания, касающиеся продукции и его ассортимента.

Следует отметить, что повышение уровня локализации имеет немаловажное значение в обеспечении устойчивого и последовательного развития экономики страны, снижении ее зависимости от внешних факторов и ускорении внедрения новых технологий в производственный процесс.

Постановления Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшей реализации перспективных проектов локализации производства готовых видов продукции, комплектующих изделий и материалов на 2017-2019 годы» от 26 декабря 2016 года и «О мерах по дальнейшему развитию промышленной кооперации и расширению производства востребо-



ванной продукции» от 1 мая 2019 года служат важным ориентиром в организации работы в этом направлении.

По итогам выставки по заданию руководства предприятия будут сформированы технические условия и перечень необходимых запасных частей и материалов для его дальнейшего приобретения на кооперационной бирже.

О. БЕГИДЖАНОВ.



Культурная жизнь

КАК ПРОШЕЛ ТАШКЕНТСКИЙ МЕЖДУНАРОДНЫЙ КИНОФЕСТИВАЛЬ

13-18 сентября 2022 года в Ташкенте проходил международный кинофестиваль «Жемчужины Шёлкового пути». В рамках кинофестиваля были проведены Дни кино стран ШОС, Дни мирового кино, Дни открытия дверей ВГИКа. В рамках праздника кино в столичных кинотеатрах состоялась демонстрация фильмов из Китая, Индии, России, Ирана, Пакистана и других стран.

Во Дворце кино имени Алишера Навои, где в последнее время проходят фестивали и форумы кино, организована экспозиция, рассказывающая об истории отечественного кино. Знакомая с ней, гости кинофестиваля отдавали должное богатой традиции узбекского кино.

Наверное, каждый узбекистанец по праву гордится нашим кино, такие шедевры киноискусства как «Походения Ходжи Насреддина», «Очарован тобой», «Где ты, Зульфия?», «Об этом говорит вся махалля», «Ташкент - город хлебный», «Ты не сирота» и многие другие открыли целую плеяду талантливых актёров. Над сценариями этих фильмов работали известные узбекские писатели. Эти фильмы стали дебютными не только для актёров, но и для некоторых кинорежиссёров. До сих пор у всех на слуху имена таких режиссёров, как Камил Ярмаев, Наби Аъзамов, Латиф Файзиев, Шухрат Аббасов, Али Хамраев.

Наше кино, как и мировое, прошло все этапы развития, первые фильмы были немые, т.е. без звука, чёрно-белыми, потом появилось цветное и широкоформатное кино. Справедливости ради необходимо отметить, что после обретения независимости такими мэтрами кино, как Мели Абзалов, Зульфикар

Мусиков и другими создавались достойные нашего славного прошлого кино, где при разнообразии методов раскрывались проблемы современности, затрагивались болезненные для молодёжи темы. Но, к сожалению, проблемы с недофинансированием, развалом кинопроката пагубно сказались на киноиндустрии в целом, а в появившемся частном кино идейно-художественный уровень в большинстве своём был низким. Критически оценивая состояние отечественной киноиндустрии главой нашего государства в постановлении «О дополнительных мерах по развитию национальной киноиндустрии» были поставлены перед отечественным кино такие задачи, как ускоренное развитие киноиндустрии, повышение конкурентоспособности на рынке, а также её продвижение за рубежом.

Проведение международных кинофестивалей в Ташкенте поднимает на более высокий уровень культурный взаимообмен, способствует активному продвижению национальной кинематографии за рубежом и интеграции в мировое кинопространство. Так, в рамках международного кинофестиваля «Жемчужина Шёлкового пути» была целая группа актёров, режиссёров из иностранных государств, в числе которых

были такие знаменитости, как французский режиссёр Люк Бессон, который осуществляет творческое руководство созданием фильма о строителе самаркандского Регистана; актер Арманд Ассанте, ставший одним из ведущих церемонии открытия, польский режиссёр Кишторф Занусси, японский актер и сценарист Такеши Китано, турецкие актёры Бурак Озчивит, Нургуль Ешилчай, знакомые узбекским зрителям по турецким сериалам. Кроме того, государственное агентство Роскино представляли популярные российские актёры - Сергей Безруков, Гоша Куценко, режиссёр Джаник Файзиев. Мэтры мирового кино провели с начинающими режиссёрами творческие встречи, мастер-классы и ответили на вопросы.

Кинофестиваль стал поистине масштабным культурным мероприятием, в котором были презентованы новые кинофильмы и новый павильон «Узбекфильма». Также в рамках кинофорума отечественными кинематографистами были подписаны контракты о совместном создании кинофильмов. В условиях мировой политической напряжённости и недоверия, значение кинофестиваля огромно. Узбекистан становится культурным мостом, соединяющим цивилизацию Запада и Востока.

О. БЕГИДЖАНОВ.

Дню учителей и наставников посвящается

ПИСЬМО УЧИТЕЛЮ

«Здравствуй, мой дорогой
Учитель!»

В первых строчках своего письма хочу поблагодарить Вас за труд, за веру в меня и терпение, за заботу и внимание, за все хорошее, что было вложено в меня. Спасибо Вам за то, что были для меня не только учителем, но и наставником по жизни.

Иногда я делилась с вами тайнами и секретами, которые даже родители не знали. Ведь вы всегда и во всем меня понимали и поддерживали. Конечно же, помню ваши наставления, замечания, советы и объяснения. В то время мне казалось, что вы сердитесь на меня и ругаете, но, спустя годы, я поняла, что все это было во благо меня. Только со временем мы можем признаться, и в первую очередь себе, что часто были не правы. И только сейчас я могу оценить ваш

труд и вклад в каждого из учеников.

Вы сумели научить меня сделать правильный выбор и указать путь к взрослой жизни, любимой профессии и счастью на мир другими глазами. Вы научили меня ставить цели перед собой и достигать их. Это благодаря Вам я стала такой, какой являюсь сейчас. Только теперь я понимаю, что Вы ставили свою жизнь, свою семью на второй план, и всю душу вкладывали в своих учеников, переживая за каждого из них.

Каждое Ваше слово учило меня чему-то: доверять, уметь прощать, дружить, любить, быть честным и искренним, храбрым и сильным, идти до конца, верить в добро, а главное, оставаться в любой ситуации Человеком. Литературой и своим талантом учителя, Вы в первую очередь воспитали в нас

доброту и честность.

Я уже давно покинула двери этой школы, института, университета и начала самостоятельную жизнь. И я с уверенностью могу сказать, что до конца жизни буду стараться оправдать Ваши ожидания. Хотя я и не стала, как вы учителем, но стараться быть достойной своей профессией.

Я очень скучаю по своему детству, юности... Но мы хорошо понимаем, что больше нет возврата в эти прекрасные дни, моменты. Но желание вернуться и увидеть Вас за учительским столом будет всегда.

Хочу пожелать Вам крепкого здоровья, долгих лет жизни. Пусть все ваши пожелания радуют Вас своими достижениями, и во всех наших успехах был и есть Ваш огромный вклад. Большое спасибо Вам за это!

Эъзохон АБДУЛЛАЕВА.



С Днём рождения!



25 сентября свой день рождения отмечает инженер сектора Контроля воздуха санитарной лаборатории Мухаббат Махамедовна Турсуналиева, которая более 26 лет самоотверженно трудится на нашем предприятии.

Мухаббат Махамедовна начала свою трудовую деятельность в 1996 году лаборантом химического анализа на Ферганском заводе химического волокна. После объединения ФЗХВ с АО «Farg'onaazot» была переведена инженером сектора контроля воздуха санитарной лаборатории, где по сей день и трудится, передавая свой бесценный опыт молодому поколению заводчан.

Отдавая должное её человеческим и профессиональным качествам коллектив санитарной лаборатории от всей души поздравляет Мухаббат Махамедовну с днём рождения! Желает оставаться такой же прекрасной женщиной, таким же целеустремленным настоящим профессионалом в своём деле. Самое главное пожелание — это сохранять всегда душевное равновесие и прекрасное настроение. В этот знаменательный для Вас день коллеги желают вам простого человеческого счастья. Коллектив — это вторая семья, а ученики ваши дети, на которых всегда можно положиться!

Санитарная лаборатория — одно из структурных подразделений нашего предприятия, в задачу которой входит комплексное обследование производственных помещений, технологических выбросов в атмосферу, сточных вод и почвы. Специфика работы лаборатории предполагает подбор квалифицированного персонала, знающего свое дело специалистов. По заданию редакции мы встретились с лаборантом сектора по контролю сточных вод и почвы Санитарной лаборатории Зухрой Ахунжановой, которую ее коллеги охарактеризовали как молодого и перспективного кадра. Лаборант пришла на работу в лабораторию более года тому назад, но благодаря усердию и старанию быстро освоила азы профессии и сегодня самостоятельно выполняет возложенные на неё обязанности.

МОЛОДЫМ ВЕЗДЕ У НАС ДОРОГА!

— Зухра, скажите, что послужило толчком для выбора этой профессии?

— Ещё с юности мечтала стать химиком. В школе на практических занятиях по химии мне особенно нравилось проводить химические опыты, получать химические вещества, комбинировать реактивы. Поэтому после окончания школы поступила на химико-технологический факультет Ферганского политехнического института.

Но главной мотивацией в выборе профессии было то, что я из семьи химиков — мой отец Адхам Буриевич Азларов и старший брат Хасан Адхамович Азларов трудятся в сфере химической промышленности.

— Как вы влились в коллектив Санитарной лаборатории?

— Коллектив Санитарной лаборатории состоит в основном из женщин, поэтому адаптироваться было не сложно. С первых дней я ощутила заботу старших товари-

шей. Каждый пытался поделиться опытом, дать практический совет. Основное время мы все проводим на работе, и оттого, насколько ты чувствуешь себя комфортно на работе, зависит производительность труда и слаженность работы всего коллектива. Во время моей стажировки и последующей работы для таких, как я, молодых специалистов, руководством Санитарной лаборатории и, в частности, Ферузакон Шамшиевой были созданы все условия для обучения. По окончании срока стажировки я успешно сдала квалификационный экзамен.

— А кто был вашим наставником?

— Моей наставницей, которая обучила меня всем тонкостям этой профессии, является лаборант 5-го разряда Дилором Абдужалилова. Она, не жалея сил и времени, передала мне свой бесценный опыт и знания. Дилором Абдужалилова мне всегда говорила: «Перед

тем, как проводить химические анализы, нужно подробно ознакомиться с методикой её проведения». Кроме того, она твердила о необходимости чтения специализированной литературы, а также художественных произведений, а это, как утверждает она, способствует расширению кругозора. Специалист с широким кругозором, который неустанно работает над собой, обязательно станет мастером своего дела, говорит она. Придерживаясь её наставлений, я, как только появляется свободное время, спешу в библиотеку за интересной книгой. Большую роль в становлении меня как специалиста сыграла также инженер



Санитарной лаборатории Гульноза Хамдамова, которая обучила меня работе с технической документацией.

— А теперь расскажите о вашем участии в общественной жизни предприятия.

— Стараюсь активно участвовать в различных мероприятиях, проводимых на предприятии, организуемые первичной организацией Союза молодёжи предприятия. Между прочим, молодёжная команда Санитарной лаборатории заняла 2-е и 3-е места в проходивших недавно на предприятии конкурсах на лучшее сочинение и видеоролик, посвящённых 31-й годовщине независимости Узбеки-

стана.

— Так совпало, что наша газета выходит накануне Дня учителей и наставников. Какие пожелания вы можете выразить своим наставникам?

— От всей души хочу поздравить всех своих учителей и наставников с их профессиональным праздником. Учителя и наставники — это люди благородных профессий. Именно им мы обязаны своим сегодняшним положением; именно благодаря их стараниям мы получили путёвку в большую жизнь. Мы в неоплатном долгу перед ними. Большое спасибо за ваш нелегкий труд, дорогие наши учителя!

Психология

ПОЧЕМУ ЛЮДИ ЗАВИДУЮТ ДРУГИМ ЛЮДЯМ?

Зависть — это не эмоция в чистом виде, а комплекс мыслей и переживаний, вызывающих негативные эмоции. Зависть связана с самооценкой или сравнением с другими людьми. И в наших глазах объект нашей зависти всегда кажется лучше, успешнее и красивее нас...

Давайте будем искать ответ на вопрос: «Почему проявляется зависть?». В исламе утверждается, что источник зависти — собственная несостоятельность (в которой обязательно кто-то виноват), обижённость на жизнь, обоснованные, по мнению завистника, злоба, неприязнь и гнев, проникающие в душу и накапливающиеся в ней по неведению и ограниченности, не удаляемые периодически из сути индивидуума, например, кропотливым трудом, сосредоточенностью на важных и зачастую сложных делах, а также молитвами.

Также причиной является отсутствие конкретных целей и жгучего желания реализовать их; отсутствие наполне-

ния жизни смыслом, целями, новыми знаниями и их применением; отсутствие собственных успехов, достижений и сценария, истории. Именно при таких обстоятельствах у индивида появляется много лишнего времени, сил, энергии, и он начинает тратить их на различные рода вредные пагубные привычки, занятия, на обсуждение других, критику и в том числе — на зависть.

В дополнение к этому пробудить и оживить чувство зависти может целый ряд факторов: враждебный настрой к тому или иному человеку; высокомерие, которое не даёт нам покоя, когда видим преимущества других; страх за свое положение, за свои перспективы; стремление к власти (руководящим постам), а потому желание опорочить всех, кто может на это претендовать; невоспитанность и гнилость натуры индивидуума, которые не дают ему возможности по-настоящему воспринимать успехи других и т. п.

Зависть обычно появляется в среде представителей одной профессии, одной специализации, сферы, и именно между теми из них, чья работа и интересы пересекаются. Если таковые два индивидуума ограничены мирскими целями

и задачами и слабы в вере или поверхностны, то постепенно может развиваться чувство черной зависти, проявляющееся, например, в выискивании ошибок друг друга, а также в создании лишних помех или затруднений в работе.

Пророк Мухаммад (да благословит его Аллах и приветствует) говорил: — «Зависть поедает благие дела (завистника) подобно тому, как огонь сжигает дрова»;

— «Зависть отрицательно влияет на веру, подобно тому, как алко портит вкус меда»;

Значит, зависть в первую очередь несет вред и психологически и морально, что завидует. Чтобы нас не преодолела зависть, нужно работать над собой.

Чтобы справиться с завистью, нужно помнить, что у всех своя собственная жизнь, и только со стороны кажется, что другим живется легче, веселее и счастливее.

Нужно отучиться сравнивать себя с другими людьми — будь то друзья, коллеги или соседи. Сравнение — это основная причина того, почему люди завидуют. Сравняйте себя только с самим собой в предыдущие времена (а еще лучше, в худшие времена). Посмотрите,

как много вы достигли с тех пор. Концентрируйтесь на новых возможностях и вашем собственном развитии. Если постоянно думать о том, чего у тебя нет, то будет испорчено не просто настроение, а даже, возможно, и многие годы жизни.

Люди частенько завидуют жизни и успехам других. А вместе с завистью фигурирует ожидание, что если бы у тебя был таунхаус, как у него, и денег столько же на профессионального дизайнера, то ты был бы, наконец, счастлив. Зависть идеализирует. Поэтому вместо того, чтобы заниматься своим развитием и своими успехами, и результатами, мы просто хотим получить то, что у него, и все! Ну, или пусть у него весь его таунхаус затопит, а итальянский дизайнер от него бежит.

Мне кажется, что дело не в том, что трава зеленее за забором у соседа, а в том, что трава лучше растет там, где ее хорошо поливают, удобряют и выпалывают сорняки. В этой фразе и заключается основной подход к преодолению зависти.

Материал из интернета.
Источники:
Umma.ru, Houzz.ru.

